

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PLATFORMA MEHNATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING DOLZARB MASALALARI

To'ymurodova Kibriyo Abdirauf qizi

Law enforcement academy of Uzbekistan

E-mail: kibriyotoymurodova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21786465>

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida platforma mehnatini huquqiy tartibga solishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Platforma mehnatining huquqiy mohiyati, ushbu sohada mavjud qonunchilikdagi bo'shliqlar hamda platforma orqali ishlovchi shaxslarning huquqiy maqomi yoritilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: platforma mehnati, mehnat huquqi, platforma operatori, platforma xodimi, raqamli iqtisodiyot, algoritmik boshqaruv, gig iqtisodiyoti, mehnat shartnomasi.

Asosiy qism

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida platforma mehnati mehnat bozorining yangi shakliga aylandi. Bugungi kunda Yandex Go, Uzun Tezkor, Express24 va boshqa raqamli platformalar orqali minglab fuqarolar mehnat faoliyatini amalga oshirmoqda. Ushbu platformalar aholi bandligini ta'minlash va xizmatlar bozorini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa-da, ularni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq masalalar dolzarbligicha qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Mehnat kodeksida platforma mehnati alohida mehnat munosabati sifatida tartibga solinmagan. Natijada platforma operatorlari va platforma orqali ishlovchi shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ko'p hollarda fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida rasmiylashtiriladi. Biroq platforma operatorining xizmat narxini belgilashi, buyurtmalarni taqsimlashi, ijrochilar faoliyatini reyting tizimi orqali nazorat qilishi va akkauntlarni bloklash vakolatiga egaligi mazkur munosabatlarda mehnat huquqiga xos bo'lgan bo'ysunuv elementlari mavjudligini ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi platforma mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yevropa Ittifoqining 2024-yildagi Platform Work Directive platforma orqali ishlovchi shaxslarning huquqiy maqomini aniqlash, algoritmik boshqaruvning shaffofligini ta'minlash hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan. Ispaniyaning "Rider Law" qonuni esa platforma nazorati ostida faoliyat yuritayotgan kuryerlarni xodim sifatida e'tirof etish orqali ularning mehnat huquqlarini himoya qilishni kuchaytirdi.

Muallifning fikricha, O'zbekiston Respublikasida platforma mehnatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish maqsadida Mehnat kodeksiga "platforma mehnati", "platforma operatori" va "platforma xodimi" tushunchalarini kiritish lozim. Shuningdek, platforma operatorining ish beruvchi sifatidagi maqomini aniqlash mezonlarini belgilash, platforma orqali ishlovchi shaxslarni ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilish hamda algoritmik boshqaruvning shaffofligini ta'minlovchi huquqiy normalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Platforma mehnati zamonaviy mehnat bozorining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mazkur munosabatlarni huquqiy jihatdan samarali tartibga solish platforma orqali ishlovchi shaxslarning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash bilan birga, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois milliy mehnat qonunchiligini

zamonaviy xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – O'RQ-798, 2022.
3. International Labour Organization. *World Employment and Social Outlook 2024*.
4. Directive (EU) 2024/2831 on improving working conditions in platform work.
5. De Stefano V. *The Rise of the Just-in-Time Workforce*. International Labour Office.